O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIMALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI VA DAVLAT O‘QUV DASTURINI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI”MODULI (2.1) BO‘YICHA

Ma’ruza matnlari

Tuzuvchi: M.Turaqulova

“Tasdiqlayman”

VPMM Direktori

_____T.T.Turg‘unov

“____”_____2026 yil

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI VA DAVLAT DASTURINI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI”MODULI (2.1) BO‘YICHA

“KIRITILDI”

“Maktabgacha,boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri

_____ N.Karimova.

(p.f.f.d.PhD)

2026- yil «____» yanvar

“KELISHILDI”

Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari:

_____ O‘.Qurbonov.

(Dotsent)

2026- yil «____» yanvar

Ushbu ishchi o‘quv-uslubiy majmua kafedraning 2026 yil 5-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan hamda tasdiqga tavsiya etilgan

Andijon 2026

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITA**	**6**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**9**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI**	**34**
V.	**ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**	**37**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**39**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI**	**58**

O’quv moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi			
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		Mustaqil tayyorga
				Jumladan	
2.1	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari va давlat dasturini joriy etishning samarali usullari” moduli	**6**	**2**	**4**	
2.1.1.	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablarning mazmuni, mohiyati hamda belgilangan rivojlanish katta sohalar va ularga oid xar bir kichik soxaga ta’luqli talablar .	2	2		
2.1.2.	Ilk qadam milliy dasturining mazmuni, mohiyati hamda uni amaliyotda qo‘llash jarayonlari.	2		2	
2.1.3.	“Ilk qadam milliy dasturi ”asosida bolalarni markazlarning integrasiyasi va o‘yinlardan foydalanish orqali rivojlantirish.	2		2	

2.1 “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va davlat dasturini joriy etishning samarali usullari” modulining o‘quv-dasturi

1-Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablarining mazmuni, mohiyati hamda belgilangan rivojlanish katta sohalar va ularga oid har bir kichik sohaga taaluqli talablar.

(*2 soat nazariy mashg’ulot*)

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablarining maqsadi, vazifalari, tamoyillari va MTTda bolalar rivojlanishiga qaratilgan katta sohalar va ular qamrab olgan kichik sohalarga qo‘yiladigan talablar.

2-Mavzu. Ilk qadam milliy dasturining mazmuni, mohiyati hamda uni amaliyotda qo‘llash jarayonlari.

(*2 soat amaliy mashg’ulot)*.

Ilk qadam milliy dasturining maqsadi, vazifalari, tamoyillari va MTTda bolalar rivojlanishida qo‘llanadigan kompetensiyalar: kommunikativ; Ijtimoiy,

shaxsiy (Men-konsepsiyasini shakllantirish); Kognitiv (bilish); «Tanqidiy fikrlash» kompetensiyalar, ularning ahamiyati va amaliyotda qo‘llanishini tahlili.

3-Mavzu. “Ilk qadam milliy dasturi” asosida bolalarni markazlarning integrasiyasi va o‘yinlardan foydalanish orqali rivojlantirish.

(*2 soat amaliy mashg’ulot)*.

Mazkur dastur asosida bolalarni kuyidagi markazlar: “Til va nutq” “Qurish- konstruksiyalash va matematika”, “Fan va tabiat”, “San’at”, “Syujetli rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” integrasiyasi rivojlanish markazlari integrasiyasi va o‘yinlardan foydalanish orqali rivojlantirish.

II. TEXNOLOGIK XARITA

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**1-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablarining mazmuni, mohiyati hamda belgilangan rivojlanish katta sohalar va ularga oid har bir kichik sohaga taaluqli talablar.(2 soat nazariy)**			
40 daqiqa	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmun va mohiyati dasturining maqsadi, vazifalari, tamoyillari	Slaydlar asosida ma’ruza. Suhbat, bahs-munozara, juftlikda ishlash	Tarqatma materiallar: beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari nomi qayd etilgan jadval, kutilayotgan natijalar yozilgan kartochkalar.	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza, jadvalni to‘ldiradi
40 daqiqa	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining MTTda bolalar rivojlanishiga qaratilgan katta sohalar va ular qamrab olgan kichik sohalarga qo'yiladigan talablar.	Ma’ruza, bahs-munozara	Ta’lim jarayonini tashkil qilish katta sohalar va kichik sohalar qayd etilgan kartochkalar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradilar, ta’limiy faoliyat ishlanmasini tahlil qiladilar, fikr mulohaza, tinglovchilar juft bo‘lib ishlaydilar
80 daqiqa	**“Ilk qadam” milliy dasturining mazmuni mohiyati hamda uni amaliyotga amaliyotda qo’llash jarayonlari..(2 soat amaliy)**			
40 daqiqa	**“Ilk qadam” milliy dasturining mazmuni mohiyati**.	Ma’ruza, juft bo‘lib ishlash	Dasturdagi takomillashtirilgan qismlar bo’yicha qayd etilgan kartochkalar.	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradi, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza, juft bo‘lib ishlaydi.

40 daqiqa	**“Ilk qadam” milliy dasturining mazmuni mohiyati hamda uni amaliyotga amaliyotda qo’llash jarayonlari.**	**Kichik guruhda ishlash**	Ta’lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari nomi qayd etilgan kartochkalar.	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza, kichik guruhda ishlaydi
80 daqiqa	**3 -mavzu:Takomillashtirilgan"Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarining integratsiyasi ..(2 soat amaliy)**			
40 daqiqa	Bolani rivojlanish markazlari: "Til va nutq" "Qurish-konstruksiyalash va matematika", "Fan va tabiat", "San'at", "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish" rivojlanish markazlari integrasiyasi,	Savol-javob, bahs-munozara	Tarqatma materiallar: Rivojlanish markazlari mazmuniga oid.	Tinglovchilar bola rivojlanish xaritasining rasmiylashtirilish tartibini tahlil etadilar.
40 daqiqa	o'yinlardan foydalanishini o'rganish va tahlil qilish.	Savol-javob, o‘zaro tahlil	Tarqatma materiallar: O’yinlar nomi mazmuni.	Tinglovchilar kuzatish natijalarini tahlil qiladilar.

I. KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtsoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 510-son Qarori, Maktabgacha ta’lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 128-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-

avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu namunaviy o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat o‘quv dasturini joriy etish” moduli asosida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv dastur ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Modul maqsadi: Tinglovchilarga Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat o‘quv dasturini joriy etish”ga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Haftalik mavzuli reja asosida tashkil etilayotgan ta’limiy faoliyatga rivojlanish sohasi bo‘yicha integratsiyani ta’minlagan holda maqsadlarni belgilash to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 802-sonli qarori bilan o‘z tasdig‘ini topgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talab-laridan foydalanib, ta’limiy faoliyatning maqsadini integratsiyalashgan yondashuv asosida tanlash haqida bilimlarga ega bo‘ladi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini hayotga tatbiq etish to‘g‘risida, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirish turlari: yillik mavzuli va haftalik reja, bir kunlik ish reja mazmuni, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yila-digan Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutib mashg‘ulot ishlanma tayyorlash, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini rivojlanish sohalarining kutilayotgan natijalari asosida ta’limiy o‘yinlar, 6-7 yoshli bolalarda belgilangan rivojlanish ko‘rsatkichlari shakllanishida foydalaniladigan resurslar bola rivojlanish xaritasining yuritilishi haqida bilimlarga ega bo‘ladi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlan-ishiga qo‘yiladigan Davlat talablaridan foydalanib, ta’limiy faoliyatning maqsadini integratsiya-lashgan yondashuv asosida belgilashni o‘rganadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarining

faoliyatini tashkil etishni o‘rganadi.

Davlat o‘quv dasturida belgilangan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanish sohalariaro integratsiyani ta’minlaydi.

Shaxsga yondashuv tamoyillarining ta’limiy jarayonda muhimligini anglaydi. Rivojla-nish markazlarida olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tahlil qiladi. Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarining kutilayotgan natijalari asosida ta’limiy o‘yinlar kartotekasini tayyorlashni, 6-7 yoshli bolalarda belgilangan rivojlanish ko‘rsatkichlari shakllanishida foydalaniladigan resurslar tahlilini amalga oshiradi.

Bola rivojlanish xaritasining yuritilishini o‘rganadi**.**

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini joriy etilishini nazorat qilib, vazifalar yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi.

Shaxsga yondashuv tamoyillarini ta’limiy jarayonda qo‘llaydi.

Bola rivojlanish xaritasining yuritilishini nazorat qiladi, amalga oshirilgan vazifalar yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi.

Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarining kutilayotgan natijalari asosida ta’limiy o‘yinlarni amaliyotda qo‘llash yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi.

1-mavzu. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari mazmun va mohiyati (2 soat nazariy)

Reja:

1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillari.

2.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalari.

1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillari.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (1-ilova);

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi (2-ilova);

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (keyingi o‘rinlarda — bolalar) har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim tashkilotlariga nisbatan qo‘llaniladi:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari".

Maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim turlari bo‘yicha pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan tashkilotlar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta’lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan xolda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;

rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar;

kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi;

kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi;

bola tarbiyasining majmui — ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari;

integratsiya — bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik;

inklyuziv ta’lim — bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim va tarbiya olinishini teng ta’minlovchi jarayon;

refleksiv faoliyat — bolada o‘z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni;

"Men" konsepsiyasi — bolaning o‘zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim- tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari.

Maktabgacha ta’limda bolani rivojlanish sohalari bo’yicha Davlat talablari

1. «Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo’linadi:

yirik motorika;

Talab: **Bola o’z tanasi va uning a’zolarini boshqaradi, maqsadli to’g’ri harakatlanadi**

mayda motorika;

Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda muvofiqlashtiradi va ishlatadi

sensomotorika;

Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir

sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

Talab: Bola salomatlikni saqlash ko'nikmalarini namoyon qiladi, xavfsiz sog'lom ovqat va hayotni saqlash qoidalari haqida tushunchaga ega

2. «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

«Men» kontseptsiyasi;

Talab: Bola o'zini o'z xususiyatlariga ega, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi. Bola mustaqil va o'ziga javob beradi

hissiyotlar va ularni boshqarish;

Talab: Bola boshqalarning his-tuyg'ularini farqlashi va o'zinikini ifodalashga qodir

ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir

3. «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

nutq va til;

Talab: Bola nutqni tinglash va tushunishga, gapirish va muloqot qilishga qodir

o'qish malakasi;

Talab: Bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi

qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

Talab: Bola asosiy harakatlarni egallagan, qo'llarning mayda motorli ko'nikmasiga ega

4. «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

intellektual-anglash malakalari;

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

elementar matematik malakalar;

Talab: Bola boshlang'ich matematik malakalarga ega

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

Talab: Bola o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o'rganishda faol

5. «Ijodiy rivojlanish» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega

1-qadam. Tarbiyachi tinglovchilarni yangi mavzu va kutiladigan natijalar bilan tanishtiradi.

2-qadam. "Aqliy hujum" metodi o'tkaziladi. Mavzu bo'yicha tinglovchilarga bitta savol beriladi: ***O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va uning mazmuni nimadan iborat?***

3-qadam. Tinglovchilar savolga o'z fikrlarini bildiradilar. Tarbiyachi

tinglovchilar tomonidan kiritilayotgan g‘oyaga nisbatan tanqidiy yondashmaydi, g‘oyani taqdim etayotgan paytda so‘zlovchining gapi bo‘linmaydi, fikrlar

sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi. Imkon qadar rag‘batlantirib turiladi. Tinglovchilar bildirgan fikrlar flipchart qog‘oz yoki doskaga yozib boriladi.

4-qadam. Aqliy hujum tugagach, barcha g‘oyalar to‘planadi. Tarbiyachi tinglovchilar bilan hamkorlikda bildirilgan fikrlarni guruhlarga ajratadi.

5-qadam. Tarbiyachi tinglovchilar bilan aniq va to‘g‘ri yechimlarni tanlab oladi. Fikrlar muhokama qilib, umumlashtiriladi.

6-qadam. Tinglovchilar 4 yoki 5 ta kichik guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga topshiriq beriladi. Har bir guruh belgilangan vaqt ichida “Klaster” usulida berilgan topshiriqlarni tarmoqlab chiqadi.

1-guruh. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi”

2-guruh. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”

3-guruh. “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”

4-guruh. “Bilish jarayonini rivojlanishi”

5-guruh. “Ijodiy rivojlanish”

Namuna: “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi” sohasini klaster usulida tarmoqlash.

7-qadam. Guruhlar yozgan ishlarini taqdimot qiladilar. Tinglovchilar fikri umumlashtiriladi.

8-qadam. Tarbiyachi mini ma’ruza o‘tkazadi**.** “O‘zbekiston Respublikasining ilk

va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” slayd-taqdimot shaklida namoyish etadi.

Mini ma’ruza. Xalqaro tajribalar asosida berilgan takliflarga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari takomillashtirilib 2018 yilning 18 iyun Maktabgacha ta’limi vazirligining 1-MH-sonli hay’at yig‘ilishida tasdiqlandi. Davlat talablari 5 ta sohadan iborat:

1. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi”

2. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”

3. “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”

4. “Bilish jarayonini rivojlanishi”

5. “Ijodiy rivojlanish”

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning kichik sohalari yirik motorikani rivojlantirish, mayda motorikani rivojlantirish, sensomotorikani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlikdan iborat. Mazkur sohani yirik motorika sohasida bola o‘z tana a’zolarini boshqaradi, maqsadli to‘g‘ri harakatlanadi. Mayda motorikada bola qo‘li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi.Sensomotrikada bola sezgi organlari yordamida o‘z harakatlarini boshqarishga qodir bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik sohasida bola sog‘likni saqlash malakalarini namoyon qiladi, xavfsiz sog‘lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish-“Men” kontseptsiyasi, hissiyotlar va ularni boshqarish, ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot,

va odob-axloq qoidalarini shakllantirish, bolaning oila va jamiyatda o‘zini tutishi, bolada mehnat tarbiyasini shakllantirish, bola o‘zini ijobiy, shaxs sifatida, o‘ziga

xos xususiyatlari bilan qabul qiladi, mustaqil va o‘z hatti-harakatiga javob beradi.

Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari nutq va til, o‘qish malakalari, qo‘l barmoqlari mayda motorika rivojlanadi. Bola kitob va o‘qishga qiziqish bildiradi. Bolada yozuv malakasi shakllanadi. Kitob haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Nutqni dialogik shaklini qo‘llaydi. Bolalar adabiyoti janrini biladi, mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.

Bilish jarayonini rivojlanishi- intellektual-anglash malakalari, elementar matematik malakalar, tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyati rivojlanadi. Bola o‘zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi. Intellektual-bilish malakalari oshadi, bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud.

Ijodiy rivojlanish - dunyoni badiiy tasavvur etish, badiiy-ijodiy qobiliyatlar namoyon bo‘ladi. Bola atrofdagi borliqni ijodiy o‘zgartirish malakasiga ega bo‘ladi. Bola turli xil san’at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishni namoyish etadi. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati haqida ilk tushunchaga ega bo‘ladi. San’atga tegishli kasblarning ayrimlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi. Musiqaga monand harakatlar o‘ylab topishi mumkin.

9-qadam. Mini ma’ruzadan so‘ng tinglovchilar bilan **“**Refleksiya” metodi o‘tkaziladi. Tinglovchilar dars jarayonida o‘zlashtirgan yangiliklar, tushungan ma’lumotlar va o‘z faoliyatida qo‘llay oladigan ko‘nikmalarni daftarlariga yozadilar.

10-qadam. Har bir tinglovchi yozgan ma’lumotlarni o‘qib eshittiradi.

Tarbiyachi fikrlarni xulosalaydi. Dars yakunlanadi.

11-qadam. Uyga vazifa. Mustaqil topshiriq: Maktabgacha ta’lim yoshdagi har bir guruhning davlat talablarini tahlil qilish.

Mavzu doirasida tinglovchilarning bilimini aniqlash uchun topshiriq

Quyidagi jadvalda (1.1-jadval) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va kichik sohalar keltirilgan. Kichik sohalarni mos ravishda tegishli sohaga belgilang. Tinglovchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, jadvallar almashtiriladi va bajarilgan ish boshqa tinglovchi tomonidan tekshiriladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va kichik sohalar

1.1-jadval.

Kichik sohalar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turrmush tarzining shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ijodiy Rivojlanish
Badiiy ijodiy qobiliyatlar					
Yirik motorika					
“Men” konsepsiyasi					
Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi					
Intellektual va anglash malakalari					
Mayda motorika					
Dunyoni badiiy tasavvur etish					
Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot					
O‘qish malakalari					
Sensomotorika					
Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik					
Nutq va til					
Elementar matematik malakalar					
Hissiyotlar va ularni boshqarish					
Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat					

***Baholash mezonlari*:** *Har bir to‘g‘ri javob 1 balldan 13-15 to‘g‘ri javob a’lo, 10-12 to‘g‘ri javob yaxshi, 7-9 to‘g‘ri javob qoniqarli, 6 tadan kam javob qoniqarsiz baholanadi.*

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi

Kichik soha: Yirik motorika

6-7 yosh

bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi;

yurishda turli topshiriqlarni bajaradi;

yengil yuguradi (shiddat bilan, to‘siqlarni yengib o‘tib, yo‘nalish va muvozanatni saqlagan holda);

bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o‘ngga va chapga almashtirib sakraydi;

arkonda turli usullarda sakraydi;

arqonli narvon, yo‘g‘on arqonda yuqoriga ko‘tariladi;

ikki oyoqli velosipedda uchadi.

Kichik soha: Mayda motorika

tasavvurdagi predmetlarni qo‘llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko‘rsatadi;

arqonlardan turli tugunlarni tugadi;

o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi;

belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni batartib yirta oladi;

mayda qismli mozaika va pazllarni yig‘adi.

Kichik soha: Sensomotorika

pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi;

koptokni yer bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi;

chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi;

koptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling);

gardishni qo‘lida, oyog‘ida, belida aylantiradi;

halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.

Kichik soha: Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik

o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor beradi;

jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi;

tabiat burchagidagi o‘simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi;

salomatlikka zararli bo‘lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o‘ynash va hokazo);

bog‘chada, ko‘chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi;

piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘l qoidalarini biladi;

yong‘in xavfsizligi -101; milliy gvardiya — 102; tez yordam — 103; gaz xizmati -104; qutqaruv xizmati 1050-telefon raqamlarini biladi;

xavfli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishni biladi va tushuntiradi

Haftalik mavzuli reja asosida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutib mashg‘ulot ishlanmaga maqsadni belgilash.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yillik mavzuli rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi.

Haftalik reja yillik mavzuli rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg‘ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo‘naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o‘tishi lozim.

Hafta mavzusi bolalar uchun juda qiziqarli, qaysidir ma’noda bolalarga tanish bo‘lishi kerak.

Masalan:

Oylar	**Oy mavzusi**	**Oy haftalari**	**Hafta mavzulari**			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	**O‘rta guruh**	**Katta guruh**	**Tayyorlov guruhi**
Sentyabr	O‘zbekiston – mening Vatanim	1-hafta	Men va bolalar bog‘chasi	Men va bolalar bog‘chasi	O‘zbekiston – mening Vatanim	O‘zbekiston – mening Vatanim
		2- hafta	Mening shahrim	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam
		3- hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam
		4- hafta	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim

Bugungi mavzumiz tarbiyachining istiqbol rejasida haftalik mavzu asosida Davlat talablarining 5 ta rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni tanlab olish, belgilash haqida bo‘ladi. Tarbiyachi mavzu asosida hafta davomida qanday maqsadlarni belgilashi juda muhim vazifa. Buning uchun tarbiyachi bolaning yosh xususiyatini, belgilanishga mo‘ljallangan maqsadlarning hajmini, olingan maqsadlarni bir haftada bajarilishi uchun vaqtning yetarliligini nazarda tutishi kerak.

Masalan, sentyabr oyining 1-haftasi mavzusi “Mening qadrdon O‘zbekistonim”. Ushbu mavzu asosida Davlat talablarining 5 ta sohasi bo‘yicha maqsadlarni belgilashni ko‘rib chiqamiz.

Masalan:

Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	**Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi**	Bolalar bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi. pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi;koptokni yer bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi; pazllar yig‘adi.
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	O‘zining millati, tili va urf-odatlari, bayramini biladi. O‘z hissiyotlariga emotsional munosabat bildiradi. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda bo‘ladi.
	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishadi, mustaqil mazmunli hikoya tuzadi.Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi.
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Yil fasllari nomini biladi. Davlat ramzlari biladi. 10 gacha qo‘shish va ayrishli sodda matematik vazifalarni yechadi, geometrik shakllar va figuralarni biladi; qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha).
	Ijodiy rivojlanish	Predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi, qog‘ozdan va tabiat materiallardan applikatsiyalar yaratadi.

Savol-javoblar

1. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasiga doir kichik sohani ko‘rsating.

Javob: Sensomotorika.

2. Davlat talablari asosida go‘daklik yosh davri ... deb belgilangan.

Javob: tug‘ilgandan 1 yoshgacha davr.

3. «Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi» sohasining kichik sohalari...

Javob: yirik motorika, mayda motorika, sensomotorika, sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

4. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi bo‘yicha kutilayotgan natijalarga misol keltiring.

Javob: O‘zining millati, tili va urf-odatlari, bayramini biladi.

5. "Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari" sohasi qanday kichik sohalarga bo‘linadi?

Javob: Nutq va til; o‘qish malakalari; qo‘l barmoqlari mayda motorikasi

Nazorat savollari

1. Davlat talablarining maqsadi...?
2. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari nomini ayting?

4. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasining kichik sohalari mazmunini ta’riflab bering.

6. "Ijodiy rivojlanish" sohasining kichik sohalarini ayting.

2-mavzu. “Ilk qadam” milliy dasturining mazmuni mohiyati hamda uni amaliyotga amaliyotda qo’llash jarayonlari.

(2 soat amaliy)

Reja

1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining mazmuni va uni amaliyotga tatbiq etish.

2.“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida muxim kompetentsiyalar

1. 1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining mazmuni va uni amaliyotga tatbiq etish.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

"Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi — bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan ta’lim jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan me’yoriy hujjat. Ushbu hujjat maktabgacha ta’lim uchun turli xil individual tarzda moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

"Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturining moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta’lim ehtiyojlariga qaratilganligi – uning asosiy jihatlaridir.

"Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturini tatbiq etishda pedagoglarga yordam tariqasida uslubiy yordam sifatida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar to‘plami taklif etildi. To‘plam MTV mutaxassislari tomonidan BMTning O‘zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg‘armasi (YuNISEF) bilan birgalikda ishlab chiqilgan bo‘lib, oltita qo‘llanmani o‘z ichiga oladi: “Maktabgacha ta’lim tashkilotida dasturlarni ishlab chiqish”; “O‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish”; "O‘yin orqali o‘rganish"; “O‘quv jarayonini individuallashtirish. Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziyasi”; “Oilalar va mahalliy hokimlik bilan hamkorlik”; "Kuzatuv va baholash".

Loyihaviy-tematik faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish uchun

"Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim faoliyatini mavzuli rejalashtirish" qo‘llanmasi taklif etildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta’lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta’lim bosqichiga o‘tishidagi tayanch kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim Davlat standartini amalga oshirish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat o'quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi.

Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta’lim tashkiloti va muassasalarida qo‘llanilishi majburiydir:

- davlat maktabgacha ta’lim takshilotlarida;
- maktabgacha ta’lim sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi nodavlat MTTlarida;
- ta’lim va tarbiyaning muqobil shakllarida;
- “Mehribonlik” uylari maktabgacha ta’lim guruhlarida;
- monitoring va uzluksizlikni ta’minlash maqsadida maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida.

"Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturida maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari belgilanib berilgan.

MTTning maqsad va vazifalari:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

"Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturining 1.3. bo‘limida pedagogning roli mazmuni yoritilib berilgan. Pedagoglar ta’limiy jarayonlarda albatta bu ko‘rsatmalarni inobatga olib ta’limiy jarayonni tashkil etishlari lozim.

Davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko‘rsatadi va ta’lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi.

Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘z bilimi, ko‘nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini

rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg‘ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta’lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak.

Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo‘lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o‘z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o‘z ishini teng sheriklik asosida quradi.

MTTda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari

Tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o‘quv dasturini amalga oshirishda ta’minlanishi kerak bo‘lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

MTT ta’lim va tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat.

- **Bolalikni o‘ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.**

Bolalik — bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o‘ziga xos xususiyati — bu bolalarning ta’lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko‘ra ko‘proq o‘rganish va o‘zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

- **Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish**

Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo‘lib dunyoga keladi va har biri tug‘ma iste’dodga ega. Har bir bola o‘ziga xos individualdir. Barcha bolalar o‘z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanish huquqiga ega.

Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo‘lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta’lim olishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi

- **har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta’minlash**

MT — parvarish, ta’lim va tarbiyadagi uyg‘un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta’minlaydi; bu ta’lim va tarbiya jarayonida **barcha rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligini,** shuningdek, ta’lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo‘yicha **integratsiyani** ta’minlash zarurligini belgilaydi.

- **Bolaning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta’minlash**

Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish; faol o‘yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, yirik va mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o‘rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o‘z tanasining ta’sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g‘amxo‘rlik qilishni va sog‘lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

- **O‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish.**

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda muhim yondashuvdir. O‘yin quvonch keltiradi va bolalarni rag‘batlantiradi, ularga yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘rganishga, o‘zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o‘yin huquqini tan oladi, o‘yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta’lim olishi va farovonligiga ko‘maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

- **MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.**

Bolaning farovonligi uning oila a’zolari va yaqinlaring MTT ahamiyatini tushunishiga bog‘liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o‘quv dasturida ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o‘z hissasini qo‘shganda bolalar yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar.

- **Milliy, tarixiy va madaniy an’analar, ma’naviy boylikni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo‘lish**

Bolalarning o‘z milliy madaniyati, tili, an’analarini hurmat bilan e’tirof etilganda ular yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o‘quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash — bu jamoaviy ish bo‘lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori mas’uldir.

Ushbu tamoyillar maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o‘quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta’lim berish va rivojlantirish bo‘yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

Pedagog maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv haqida qisqacha sharhlab beradi. Kompetensiya, kompetentli bola, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiyat (“Men” konsepsiyasi) ni shakllantirishning sharhi.

Kompetensiya - bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiyat (“Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy **(**"Men" kontseptsiyasini qurish**)**
- Bilish

Kommunikativ kompetentsiya - atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati.

Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o‘zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savollar va ko‘rsatmalarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funktsiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo‘lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar.

Bu kompetentsiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi; ta’lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetentsiya – bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati.

Bolalar:

- boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadi;
- guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladi;
- yosh va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda muammoli vaziyatlar uchun yechim topish harakatlarini amalga oshiradi;
- o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radi va o‘z huquq va majburiyatlari borligini tushunadi;
- atrofdagilarning individual farqlarini qabul qiladi;
- boshqa bolalar va kattalar bilan uyg‘unlikda yashashi mumkin;
- turli odamlar bilan muloqot qiladi, ular bilan o‘rtoqlashadi, yordam beradi va atrofdagilarning madaniy xilmaxiligini qollab-quvvatlaydi.

Ijtimoiy kompetensiyaga misol:

5 yashar Zumrad birinchi marta MTTga keldi va katta guruhga kirdi. Onasi bilan xayrlashganda xafa bo‘lib, yig‘ladi. Tarbiyachi guruh bolalari bilan birga Zumradni samimiy qo‘llab-quvvatladi. Bolalar unga do‘stona tabassum qildi, o‘yinchoqlaridan birga foydalandi, faol muloqotda bo‘ldi (unga savollar berishdi, uning savollariga javob qaytarishdi). Bolalar uni o‘yinlariga qo‘shdi, guruh xonasi bilan tanishtirdi, yangi qizchaga guruhdagi gigiyena qoidalarini o‘rganishga ko‘maklashdi – ularga qanday rioya qilishni ko‘rsatib berdi. Qizcha tinchlandi, jilmaydi, kubiklardan uy qurayotgan bolalar guruhini qiziqish bilan kuzatdi.

Guruh bolalari **ijtimoiy kompetensiya orqali** guruhga yangi bola qo‘shilgan vaziyatda tengdoshlar bilan birga muloqot qilish va faoliyat yuritish qobiliyatini ko‘rsatib berdi. Guruhdagi xatti-harakat qoidalarini bilish, jamoada ishlash mahoratidan foydalandi va o‘zlarini shu jamoa a’zosi sifatida his qildi, o‘yinchoqlardan birgalikda foydalandi, MTTga moslashish davrida Zumradga yordam berish va uni qo‘llab-quvvatlash muhimligini tushundi.

Shaxsiy kompetentsiya – “men” konsepsiyasining shakllanishi bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati hamda

kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratidir. Bola:

- o‘zining hayotdagi o‘rnini biladi, mustaqil va o‘ziga ishonadi;
- o‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi;
- o‘zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi;
- o‘z g‘oyalarini ilgari suradi va targ‘ib qila oladi; o‘zi uchun qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- qanday tanlashni biladi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi;
- o‘z harakatlari uchun tashabbus va mas’uliyatni namoyon qiladi;
- o‘zining yaxshi ko‘rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg‘ularini kattalar yoki bolalar bilan o‘rtoqlashadi;
- o‘sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi (o‘z ehtiyojlarini ifodalaydi va ularning qondirilishini ta’minlay oladi);
- hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqara oladi;
- sog‘lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigienik qoidalarga rioya qiladi;
- jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi, o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni namoyon qiladi.

Shaxsiy kompetensiyaga misol:

6 yashar Olimbek mahalladagi aralash yoshdagi muqobil guruhga qatnaydi. U shaxmatga qiziqadi va tumanda o‘tkazilgan tengdoshlar o‘rtasidagi shaxmat musobaqalarida 2-o‘rinni egalladi. Olimbek MTTdagi shaxmat to‘garagi mashg‘ulotlariga katta qiziqish bilan muntazam qatnashadi. Guruhdagi ishtirokchilarga shaxmat o‘yinini bajonidil o‘rgatadi. Kichkina bolalarni shaxmat donalari bilan tanishtiradi, birgalikda shaxmat donalarining rasmini chizadi, bolalar bilan kartondan shaxmat taxtasi yasaydi, loydan shaxmat donalari yasashga yordam beradi. Olimbek guruh pedagogi bilan o‘z guruhida kichik musobaqa o‘tkazishni rejalashtiryapti.

Bu bolada **shaxsiy kompetensiya** – tanlash, o‘zi uchun maqsadlar qo‘yish, tashabbus ko‘rsatish va muvaffaqiyatga erishish qobiliyati shakllanishiga misoldir. Bolaning xatti-harakatida mas’uliyat va tashabbus ko‘zga tashlanadi. Bola do‘stlikni qadrlaydi, shaxmat o‘ynash bo‘yicha o‘z qiziqishlari, bilimlari va malakalarini tengdoshlari va kichik bolalar bilan o‘rtoqlashadi. Bola o‘z g‘oyalarini ilgari surishni va amalga oshirishni biladi.

Bilish kompetensiyasi – atrof olamni ongli ravishda idrok etish va olingan bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni o‘quv va amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilim olish, o‘qish va o‘rganish qobiliyati;
- mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyati;
- bolalar bilan o‘zaro munosabatlarda bilim olish va o‘rganish strategiyalarini rivojlantirish qobiliyati;
- atrof olamda o‘zi uchun yangi obyektlarni o‘rganish va kashf etish qobiliyati;
- o‘yin hamda boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro munosabat jarayonida kuzatish, qatnashish va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalari;
- yangi imkoniyatlar topish qobiliyati;
- mustaqil, tanqidiy yondashadigan va ijodkor shaxsga aylanish qobiliyati;
- muammolarni tushunish va hal qilishga e’tibor qaratish, muammolarga yechim topish strategiyalarini rivojlantirish qobiliyati;
- atrof olamni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlardan foydalanish ko‘nikmalari;
- o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirish, o‘rganishdan zavqlanish va kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishish qobiliyati.

Bilish kompetensiyasiga misol:

Tayyorlov guruhidan 6 nafar bola (qizlar va o‘g‘il bolalar) o‘qituvchi ko‘magida “Suv – hayot manbai” loyihasini tayyorlab, butun guruhga taqdim etdi. “Fan va tabiat” markazida ular suvni isitish, sovitish va bug‘latish bo‘yicha tajriba namoyish qildi. Bolalar bilan suv haroratini qanday o‘lchashganini ko‘rsatib berdi. Bolalar ota-onalar yordamida o‘z qishlog‘idagi suv manbalarining maketini tayyorladi va guruh bilan suvga ehtiyotkor munosabatda bo‘lishni muhokama qildi. Odamlar hayotida suvdan foydalanish mavzusiga oid topishmoq va boshqotirmalar tayyorladi, guruhdagi bolalar esa ularning javobini topdi. Oxirida ota-onalardan biri, tuman ekologi qurg‘oqchilik va suvning dunyo iqlimiga ta’siri haqidagi videoni namoyish qildi.

Bu bolada **bilish kompetensiyasi –** olingan bilim, malaka, ko‘nikma va qadriyatlarni atrof olamni anglash uchun qo‘llash qobiliyatining shakllanishiga misoldir. Bolalar atrof olam (jumladan suv) haqidagi zarur axborotni izlash va tanlashni, boshqa bolalar bilan o‘ynaganda suvning xususiyatlarini tajribadan o‘tkazish va tahlil qilishni biladi, bilimlarini kreativ (ijodiy) bo‘lishish, kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, suv muammosi va uning o‘z hududidagi va global miqyosdagi iqlimga ta’sirini o‘rganish strategiyasini rivojlantirish qobiliyatiga ega.

Guruh uchun umumiy 1-topshiriq: bahs-munozara

Guruhga aqliy hujum metodi bilan quyidagi savolga javob berishni taklif qilinadi:

- Kompetensiyalarning tarkibiy elementlari?

-Kompetentli bola iborasini qanday tushunasiz?

-Pedagoglar maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari haqida nimalarni bilishlari kerak?

AMALIY MASHG‘ULOT: 1-TOPSHIRIQ

1.Tinglovchilarga Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari mazmuni yoritilgan varaqani o‘rganish, tahlil qilish vazifasi beriladi (5-tarqatma).

“Juft bo‘lib ishlash” metodi

Ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni juft bo‘lib ishlagan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan ijodiy ish.

- tinglovchilar juftlikda ishlaydilar.
- Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari mazmuni yoritilgan varaqani o‘rganish, tahlil qilish vazifasi beriladi. Tahlil qilish qoidalari tushuntiriladi;
- guruh ishtirokchilarining fikrlari umumlashtirilib, javoblar to‘ldiriladi;
- topshiriq yuzasidan guruhlar taqdimoti amalga oshiriladi;
- guruh javoblari muhokama etiladi, tahlil etiladi.

Tinglovchilarga topshiriq umumiy beriladi.

Berilgan maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari mazmuni asosida hayotiy misol keltirish.

Tinglovchilar tomondan berilgan javoblardan so‘ng ma’ruzachi tamondan javob umumlashtiriladi.

Kichik guruhda ishlash uchun topshiriqlar. Topshiriqni bajarish.

Pedagog tinglovchilarni juft bo`lib ishlashlari uchun vazifa beradi.

Topshiriqlar:

1. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

2.Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

3.Shaxsiy kompetentsiyani ("Men" konsepsiyasini yaratish) rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

4.Bilish kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

Tinglovchilar taqdimoti.

2.1.3.Mavzu: “Ilk qadam milliy dasturi” asosida bolalarni markazlarning integratsiyasi va o’yinlardan foydalanish orqali rivojlantirish.

Ilk qadam» davlat dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari integratsiyasi bolalarning har tomonlama (jismoniy, nutqiy, ijtimoiy-hissiy, kognitiv) rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv o‘yin faoliyati orqali markazlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni yaratib, bolada kompetensiyalar va ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

«Ilk qadam» dasturi doirasida markazlar integratsiyasining asosiy jihatlari:

Rivojlanish markazlarini tashkil etish: MTTlarda qurilish/konstruksiyalash, syujetli-rolli o‘yinlar, san'at, savodxonlik, fan va tabiat kabi markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim: Har bir markaz alohida yo‘nalishga ega bo‘lsa-da, ulardagi faoliyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, kompleks rivojlanishni ta'minlaydi.

Pedagogik jarayon: Tarbiyachilar ta'lim va tarbiya jarayonini o‘quv yili bo‘yicha rejalashtirib, o‘yin orqali bolalarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini o‘stiradi.

Bolaga yo‘naltirilganlik: Markazlar bola faoliyati va qiziqishlariga asoslanib, ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

Ushbu yondashuv orqali bolalarda maktabgacha yoshdagi rivojlanish bosqichlariga mos kompetensiyalar shakllantiriladi.

Ilk qadam milliy dasturi asosida o‘yinlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama (jismoniy, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va kognitiv) rivojlanishiga qaratilgan asosiy faoliyat turidir. Dastur o‘yin orqali o‘rganish tamoyiliga asoslanib, rolli, ijodiy, harakatli va didaktik o‘yinlar orqali bolalarning mustaqil fikrlashi hamda atrof-muhitni anglashini rag‘batlantiradi.

«Ilk qadam» dasturida o‘yinlardan foydalanishning asosiy tamoyillari:

O‘yin orqali rivojlantirish: Bola faoliyati o‘yin markazlarida (qurish-konstruksiyalash, syujetli-rolli o‘yinlar, san’at) tashkil etiladi.

Mustaqillik: Tarbiyachilar bolalarga o‘yin tanlash va o‘yin faoliyatini boshqarishda erkinlik beradi, bu esa ularda tashabbuskorlikni oshiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv: O‘yinlar turli ta’lim sohalarini (savodxonlik, matematika, tabiat) qamrab oladi.

Qiziqarli yondashuv: Bolalarni qiziqtirish uchun qum bilan o‘yinlar, harflar shaklidagi o‘yinchoqlar, stikerli kitoblar va rolli qo‘g‘irchoqlardan foydalaniladi.

O‘yinlar tarbiyachining kuzatuvi ostida o‘tkaziladi.

Rivojlanish markazlariga qo‘yiladigan talablar: - Rivojlanish markazlarini tashkilot, guruh makonining, shuningdek, dasturni amalga oshirish uchun moslashtirilgan tashkilotga tutash yoki qisqa masofada joylashgan hududning (keyingi o‘rinlarda) ta’lim salohiyatini maksimal darajada amalga oshirishni ta’minlaydi.Maktabgacha yoshdagi bolalarni har bir yosh bosqichining xususiyatlariga muvofiq rivojlantirish, ularning sog‘lig‘ini himoya qilish va mustahkamlash, xususiyatlarini hisobga olgan holda va rivojlanish kamchiliklarini tuzatish uchun materiallar, jihozlar ta’minoti; - rivojlanish markazlari bolalarning (turli yoshdagi bolalar) va kattalarning muloqoti va birgalikdagi faoliyati, bolalarning motor faolligi, shuningdek, yolg‘izlik uchun imkoniyatlarni ta’minlashi kerak. Maktabgacha yosh - bu shaxs rivojlanishining o‘ziga xos asosidir. Bu davrda ko‘plab omillar ta’sirida bolaning qobiliyatlari, ko‘nikmalari va kelajakdagi xarakteri shakllanadi. Bolaning yonida bo‘lgan kattalarning vazifasi uyg‘un, rivojlanayotgan, hissiy jihatdan qulay muhit yaratishdir. Rivojlanish markazlari quyidagilarni ta’minlashi kerak: -turli ta’lim dasturlarini amalga oshirish; - inklyuziv ta’lim tashkil etilganda - buning uchun zarur shart-sharoitlar; - tarbiyaviy faoliyat olib boriladigan milliy-madaniy, iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda; - bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish Rivojlanish markazlari mazmuni boy, o‘zgaruvchan, ko‘p funksiyali, o‘zgaruvchan, foydalanish mumkin va xavfsiz bo‘lishi kerak.

Atrof-muhitni o‘rganish uchun tanlangan mavzular mazmuni (ob’ekt) bolalarning yosh imkoniyatlariga va Davlat o‘quv dasturiing mazmuniga mos kelishi kerak. Ta’lim maydoni o‘quv jihozlari (shu jumladan texnik), tegishli materiallar, shu jumladan iste’mol qilinadigan o‘yinlar, sport, o‘yin-kulgi jihozlari, inventar (Dasturning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq) bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Ta’lim-tarbiya maydonini tashkil etish va turli xil materiallar, jihozlar va inventarlarni (binoda va uchastkada) ta’minlashi kerak: barcha bolalarning o‘yin, kognitiv, tadqiqot va ijodiy faoliyati, bolalar uchun mavjud bo‘lgan materiallar (shu jumladan qum va suv) bilan tajriba o‘tkazish; ko‘rgazmali va tarqatma vositalar faoliyati, shu jumladan qo‘l barmoq motorikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ochiq havoda o‘yinlar va musobaqalarda ishtirok etish uchun resurslar ta’minoti; ob’ekt-fazoviy muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan bolalarning hissiy farovonligi; Bolalarning erkin harakati (bolalarga o‘zlarini ifoda etish imkoniyat). Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim maydoni turli materiallar bilan harakat 14 qilish, ob’ekt va o‘yin faoliyati uchun zarur va etarli imkoniyatlarni ta’minlashi kerak. 2. Makondan o‘zgaruvchanlik va variativ tarzda ta’lim holatiga, shu jumladan bolalarning o‘zgaruvchan qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi nogiron bolalar va nogiron bolalar uchun arzon va sifatli ta’limni ta’minlashdir. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonini inklyuziv yondashuv majburiyatini oladilar: nogiron bolalar jalb qilinadi va sog‘lom bolalar bilan birga rivojlanadi. Maktabgacha tarbiya yo‘nalishidagi

pedagoglar bir xil ma’lumot sohasida bo‘lgan bolalarning ko‘p darajali kontingenti bilan ishlashni o‘rganishlari kerak. Guruhga sog‘lom bolalar va nogiron bolalar kirishi mumkin, masalan: miya falajli bolalar, ko‘rish qobiliyati zaif bolalar, eshitish qobiliyati zaif bolalar va nogiron bolalar. Inklyuziv rivojlanish (reabelitatsion rivojlanish) markazlari - bu nogironlikdan kelib chiqadigan ehtiyojlarga moslashtirilgan va alohida ehtiyojli bolalarga mustaqil hayot tarzini olib borishga imkon beradigan, qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirishga va nogironlarning maksimal darajada integratsiyalashuviga hissa qo‘shadigan oddiy muhit. Rivojlanish markazlarida pedagogik jarayonni rejalashtirish va ish mazmuni bo‘yicha tavsiyalar Mavzuli rejalashtirishga ko‘ra har bir yosh guruhida oy va hafta mavzusi belgilanadi. Tarbiyachi oy mavzusini inobatga olgan holda guruhni jihozlaydi. Masalan: “G‘aroyib olam”, “Go‘zal bahor”, “Bu zamin barchamizniki” va boshqalar. Bundan tashqari, oy mavzusini MTT binosiga kirish joyi, foye va guruhlarga kirish joylariga joylashtirish tavsiya qilinadi. Bu jihozlar oson almashtiriladigan bo‘lishi lozim. Oy mavzulari ichidagi hafta mavzulari bo‘yicha quyidagi rivojlanish markazlari ishi tashkil etiladi: Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish Til va nutq markazi Fan va tabiat markazi San’at markazi Tarbiyachi hafta uchun mo‘ljallangan mavzu, maqsad va kutilayotgan natijalarni yaxshi bilishi kerak, chunki shu asosda har bir markazda olib 15 boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning ishlanmasini yaratadi, kerakli jihoz va materiallarni tayyorlaydi, faoliyatning qadamma-qadam borishini ishlab chiqadi, shuningdek, e’tiborga molik jihatlarga tayyorlanadi. Har bir rivojlanish markazining o‘z maqsadi va yo‘nalishiga ega, shuning uchun markazlardagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta’limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim.

Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi. Markaz ishi davomida tarbiyachi bolar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi markazdagi ishlarni diqqat bilan tahlil qiladi va guruhning barcha bolalari besh kun davomida har bir markazda bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kimga bajarish oson, kimga qiyin bo‘lganini kuzatadi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi. Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini o‘rganadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo‘yilgan maqsadga erishildimi yoki yo‘qmiligi chuqur tahlil etiladi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgalik ko‘riladi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o‘zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, o‘z kuchi va qobiliyatini sinab ko‘rishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, ularning his-tuyg‘ulari va va xatti-harakatlarini tushunish va baholashga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta’lim negizini tashkil etadi. Shuningdek, MTTlarda har qanday yosh guruhlari uchun rivojlanish markazlarini

yaratishda ta’limiy-tarbiyaviy jarayonning ishtirokchilari hamkorligining psixologik asoslarini, dizayn va ergonomikasini1 hisobga olish kerak.ayotgan ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutib ta’limiy faoliyatni tashkil etish “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg‘ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo‘naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o‘tishi lozim. Hafta mavzusi bolalar uchun juda qiziqarli, qaysidir ma’noda bolalarga tanish bo‘lishi kerak.

Masalan: Oylar Oy mavzusi Oy haftalari Hafta mavzulari Yosh guruhlari Sentabr O‘zbekiston – mening Vatanim 1-hafta Kichik guruh Men va bolalar O‘rta guruh Men va bolalar Katta guruh Tayyorlov guruhi bog‘chasi 2- hafta Mening shahrim bog‘chasi O‘zbekiston – mening Vatanim O‘zbekiston – mening Vatanim Mening shahrim – mening mahallam 3- hafta Men va mening oilam Mening shahrim – mening mahallam Mening shahrim – mening mahallam Men va mening oilam 4-hafta Men va mening Men va mening Men va mening oilam Men va mening oilam Men va mening do‘stlarim do‘stlarim do‘stlarim Men va mening do‘stlarim Tarbiyachining istiqbol rejasida haftalik mavzu asosida Davlat talablarining 5 ta rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlar belgilanib olinadi. Tarbiyachi mavzu asosida hafta davomida qanday maqsadlarni belgilashi juda muhum vazifa. Buning uchun tarbiyachi bolaning yosh xususiyatini, belgilanishga mo‘ljallangan maqsadlarning hajmini, olingan maqsadlarni bir haftada bajarilishi uchun vaqtning yetarligini nazarda tutishi kerak. Masalan, sentabr oyining 1-haftasining mavzusi “Mening qadrdon O‘zbekistonim”. Ushbu mavzu asosida Davlat talablarining 5 ta sohasi bo‘yicha maqsadlarni belgilashni ko‘rib chiqamiz. 23 24 Masalan: Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi Bolalar bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi. pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi;koptokni yer bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi; pazllar yig‘adi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish O‘zining millati, tili va urf-odatlari, bayramini biladi. O‘z hissiyotlariga emotsional munosabat bildiradi. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda bo‘ladi. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari Kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishadi, mustaqil mazmunli hikoya tuzadi.Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi. Bilish jarayonining rivojlanishi Yil fasllari nomini biladi. Davlat ramzlari biladi. 10 gacha qo‘shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechadi, geometrik shakllar va figuralarni biladi; qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha). Ijodiy rivojlanish Predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi, qog‘ozdan va tabiat materiallardan applikatsiyalar yaratadi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi. Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qaerda shug‘ullanishni xohlayotgan bo‘lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo‘lgan materiallar bolalarga predmetlarni o‘rganish, turli o‘yinli vaziyatlarda o‘z g‘oyalarini yaratish va tekshirish, o‘rganish yordamida o‘z savollariga javoblarni topishga imkon beradi. Rivojlanish markazlarida bolalar integrativ shaklda ta’lim oladi, ya’ni har bir rivojlanish muhiti boshqa rivojlanish muhiti bilan uzviy bog‘liqlik asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ta’lim jarayoni uzviy bog‘langan va integrallashgan bo‘lishi kerak. Rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni (rivojlanish ko‘rsatkichlar) bolada rivojlantirish uchun bir haftalik tadbirlarni ko‘rib chiqamiz -O‘yinlar (syujetli-rolli, ta’limiy, qoidali) -Suhbatlar -Badiiy adabiyot -Bilish-tadqiqotchilik faoliyati -Konstruksiyalar yasash -Tasviriy faoliyat -Musiqiy faoliyat Rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga yordam berishini nazarda tutib, biz misol tariqasida “Nutq va til” markazi bolani jismoniy, ijtimoiy-hissiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga ham yordam berishini tahlil qilamiz. Bunda biz “Nutq va til” markazida “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusida ta’limiy faoliyat uchun Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturidan foydalangan holda Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutib mashg‘ulot ishlanmaga maqsadni belgilashni ko‘rib chiqamiz. “Nutq va til” markazida bolalar “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusida ta’limiy faoliyat davomida o‘zoro muloqot qilib, ona tilida so‘zlashadilar, shunda nutqning moslashuvchanligini oshiradilar, so‘z zaxirasini ko‘paytiradilar, yangi tushunchalarni o‘zlashtiradilar, bolalar mazmunli rasmlar orqali hikoyalar tuzadilar, o‘qilgan badiiy asar yuzasidan savol-javoblarda qatnashadilar, nutq o‘stirish bo‘yicha ta’limiy o‘yinlar o‘ynaydilar.

“Nutq va til” markazida bolalar “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusida ta’limiy faoliyat davomida do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olish, mavzu asosida hikoyalar tuzish, guruh muhokamasida muloqotga kirishish va tinglab ishtirok etish imkoniyati mavjud. Pedagog tomonidan bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? kabi savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berib, bolalarni surat bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undaladi, surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatiladi. “Mustaqillik bayrami”, “Mustaqillik maydoni” kabi mavzularida lug‘atni faollashtiriladi. Bolalar surat asosida voqealarni so‘zlab berayotganlarida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon) turini qo‘llay bilish ko‘nikmalarini shakllantiriladi, nutqning ifodaliligini tarbiyalanadi. “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusidagi ta’limiy faoliyat davomida bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi tomonidan ham rivojlantiriladi. Boladagi ko‘pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo‘qola boshlaydi. Guruh muhokamasida muloqotga kirishish bolaning tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo‘lish,

do‘stlariga yordam berish, kelishib o‘ynash, o‘rtoqlariga yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari tarbiyalanib boradi, demak bizda “Nutq va til” markazida bolalarga “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusidagi ta’limiy faoliyat davomida bolalarni ijtimoiy –hissiy tomondan rivojlantirish imkoniyatimiz bor. Bolalarda mavzu bo‘yicha suhbat davomida “Men” konsepsiyasi rivojlanadi: suhbat davomida bolalarning o‘z millati, tilini bilishlari rag‘batlantiriladi. “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusidagi ta’limiy faoliyat davomida intellektual-bilish malakalari ham rivojlantiriladi. Bolalar o‘z mamlakati va uning ramzlari - gerb, bayroq va madhiyasi, O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili ekanligi haqidagi bilimlarini mustahkamlanadi.

Demak, “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusidagi ta’limiy faoliyat orqali Davlat talablarining “Bilish 26 jarayonini rivojlanishi” 4-sohasidagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini integratsiya asosida ta’limiy faoliyatga singdirib o‘tish mumkinligini ko‘rib chiqdik. “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusidagi ta’limiy faoliyat davomida jismoniy tomondan ham bolalarni rivojlanishlarini amalga oshirish mumkin: bolalarga mayda motorikani rivojlantirish, ko‘rish va qo‘l harakatlari koordinatsiyasini rivojlantirish uchun pazl o‘yinlar (“O‘zbekiston gerbi”, “Mustaqillik maydoni”) taklif etish mumkin. Xulosa qilganda imkon qadar rivojlanish markazlarida Davlat talablarining 5ta rivojlanish sohalarini integratsiyasini ta’minlangan holda ta’limiy faoliyatni tashkil etib, bolalarga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishlariga imkoniyat yaratib berilishi maqsadga muvofiqdir.

Oy:Sentabr. Mavzu:O‘zbekiston – mening Vatanim 1-hafta. Mavzu: Mening qadrdon O‘zbekistonim Maqsad: Nutq va til: Bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? kabi savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni surat bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish. “Mustaqillik bayrami”, “Mustaqillik maydoni” kabi mavzularida lug‘atni faollashtirish. Bolalar surat asosida voqealarni so‘zlab berayotganlarida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon) turini qo‘llay bilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash. “Men” konsepsiyasi: Vatan haqida suhbat davomida bolalarning o‘z millati, tilini bilishlarini rag‘batlantirish. Intellektual-bilish malakalari: O‘z mamlakati va uning ramzlari - gerb, bayroq va madhiyasi, O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili ekanligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Mayda motorika: Mayda qismli mozaika va pazllarni yig‘adi. Oy:Sentabr. Mavzu:O‘zbekiston – mening Vatanim.

Nazorat savollari

1. Nima sababdan maktabgacha ta’limda fanlarni alohida-alohida o‘rgatishdan ko‘ra, markazlar integratsiyasi orqali yondashish samaraliroq hisoblanadi? Fikringizni bolaning psixofiziologik rivojlanishi bilan bog‘lab tushuntiring.

2. "Bahor keldi" mavzusini "Ilm-fan", "San’at" va "Qurish-yasash" markazlarida qanday qilib bir vaqtda integratsiya qilish mumkin? Har bir markaz uchun bittadan aniq amaliy vazifa keltiring.

3. "Rivojlantiruvchi muhit — bu uchinchi tarbiyachidir" degan tushunchani qanday izohlaysiz? O‘yin markazlaridagi jihozlarning joylashuvi bolaning mustaqil qaror qabul qilishiga qanday ta’sir qiladi?

4. Syujetli-rolli o‘yinlar davomida bolalar o‘rtasida nizo chiqsa (masalan, o‘yinchoq talashish), tarbiyachi o‘yin ta’limi tamoyillarini buzmagan holda ushbu vaziyatni qanday qilib o‘quv jarayoniga aylantirishi mumkin?

5. Bolaning biron-bir markazdagi faoliyati davomida uning rivojlanishini qanday ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin? (Masalan, nutq, kognitivlik yoki motorika nuqtayi nazaridan).

Test savollari

1. Markazlar integratsiyasi deganda nima tushuniladi?

A) Markazlarni bir-biridan baland to‘siqlar bilan ajratish

B) Bolaning bir faoliyat davomida bir nechta rivojlanish sohalariga oid bilimlarni egallashi

C) Faqatgina rasm chizish markazida mashg‘ulot o‘tish

D) Guruhdagi barcha jihozlarni bitta joyga to‘plash

2. O‘yin orqali ta’lim berishning (Play-based learning) asosiy maqsadi nima?

A) Bolani faqat vaqtichog‘lik qilishini ta’minlash

B) Bolaga bilimni majburiy tarzda yodlatish

C) Bolaning qiziqishlari orqali tabiiy ravishda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish

D) Tarbiyachining ishini kamaytirish

3. "Nutq va til" markazini "San’at" markazi bilan qanday integratsiya qilish mumkin?

A) Bolalarga ertak o‘qib berish va personajlarni loydan yasashni taklif qilish

B) Bolalarni faqat jim o‘tirishga majburlash

C) Faqat harflarni yozdirish

D) Qurish-yasash markazida bloklar bilan o‘ynash

4. MTTda markazlar necha yoshdan boshlab tashkil etiladi?

A) Faqat tayyorlov guruhida

B) 5 yoshdan keyin

C) Ilk yoshdagi guruhlardan boshlab (kichik guruhlardan)

D) Faqat maktabga chiqqandan so‘ng

5. Markazlar integratsiyasida "Syujetli-rolli o‘yinlar" markazining ahamiyati nimada?

A) Bolaning matematik hisoblash qobiliyatini oshirish (faqat)

B) Ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni va hayotiy vaziyatlarni modellashtirishni o‘rgatish

C) Bolani uxlashga tayyorlash

D) Jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish

6. Qaysi markazda bola mantiqiy fikrlash va sensor rivojlanishni integratsiya qiladi?

A) Musiqa markazida

B) Qurish-yasash va matematika markazida

C) Oshxona markazida

D) Kutubxona markazida

7. "Ilm-fan va tabiat" markazida tajriba o‘tkazayotgan bola qaysi ko‘nikmalarni rivojlantiradi?

A) Kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish

B) Faqat chiroyli yozish

C) Faqat qo‘shiq aytish

D) Tez yugurish

8. Markazlarda integratsiyalashgan faoliyatni rejalashtirishda kimning qiziqishlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi?

A) Bog‘cha mudirasining

B) Ota-onaning

C) Bolaning

D) Tekshiruvchining

9. Ochiq savollar berish o‘yin ta’limida qanday rol o‘ynaydi?

A) Bolaning nutqini cheklaydi

B) Bolani ijodiy fikrlashga va o‘z fikrini bayon etishga undaydi

C) Savollarga faqat "ha" yoki "yo‘q" deb javob berishni o‘rgatadi

D) Hech qanday ahamiyatga ega emas

10. Markazlar integratsiyasining natijasi qanday bo‘ladi?

A) Bola zerikib qoladi

B) Bolada dunyo haqida yaxlit (fragmental emas) tasavvur shakllanadi

C) Bolaning xotirasi yomonlashadi

D) Guruhdagi tartib buziladi

To‘g‘ri javoblar kaliti:

1.b

2.c

3.a

4.c

5.b

6.b

7.a

8.c

9.b.

10.b

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR

№	test savollari	javob 1	javob 2	javob 3	javob 4	t-j
1.	Bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar nima deb ataladi?	Rivojlanish sohasi	Kichik soha	Integratsiya	Rivojlanish	1
2.	Bolalarda kutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar	Kutilayotgan natija	Refleksiv faoliyat	Rivojlanish sohasi	Rivojlanish	1

№	test savollari	javob 1	javob 2	javob 3	javob 4	t-j
	koʻrsatkichi nima deb ataladi?					
3.	Bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari oʻrtasidagi bogʻliqlik nima deb ataladi?	Integratsiya	“Men” konsepsiyasi	Refleksiv faoliyat	Maktabgacha ta’lim	1
4.	San’at va madaniyatga qiziqishini namoyon qilish qaysi sohaga tegishdi?	Ijodiy rivojlanish sohasiga	Bilish jarayonining rivojlanish sohasiga	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malaklari sohasiga	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasiga	1
5.	Tasviriy faoliyat turlari qaysilar?	Rasm chizish, loydan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish-yasash, origami	loydan buyumlar yasash va rasm chizish. yozuvga o`rgatish	Applikatsiya, rasmlarni shtrixlash, bo`g`in o`qitish	Origami, qurish-yasash, tovush ustida ishlash.	1
6.	Mayda motorikaga tegishli koʻrsatkichlarni toping.	belgilangan chiziqlar boʻylab qogʻozni batartib yirta oladi, ovqatlanish oldidan qoʻlini yuvadi	belgilangan nishonga predmetni irgʻitadi	koptokni yuqoriga otadi va uni qayta ilib oladi	barmoqlarini sanaydi	1
7.	MTTning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?	Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish	maktab ta’limiga tayyorlash	faoliyat turlarini toʻgʻri tashkil etish	kompetensiyalarning rivojlanishi uchun shart sharoit yaratish	1
8.	Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri qaysi qatorda	Oʻzini namoyon qilish	Kuzatish	Oʻrganish	Tahlil qilish	1

№	test savollari	javob 1	javob 2	javob 3	javob 4	t-j
	to‘g‘ri ko‘rsatilgan?					
9.	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Individuallik	Baholash	Test olish	Uyga vazifa berish	1
10	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Tanlash	Rivojlantirish	Takomillashtirish	Uyga vazifa berish	1
11	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.?	Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat	Sen ham shunday qil!	Ko‘rsatma berish	Takliflar berish	1
12	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyalarning qanday turlari bor?	Tadqiqot, kommunikativ, o‘yin, psixologik, faoliyat, refleksiya	O‘yin, bilish, muloqot, ijtimoiy ertalabki davra	O‘yin, mashg‘ulot, sayr, bilish, kechki soat, muloqot	O‘yin, mashg‘ulot, sayr, hisobot, bilish, muloqot	1
13	Davlat talablarida ko‘rsatilgan kutilayotgan natijalarning bola tomonidan o‘zlashtirilayotganini qanday aniqlanadi?	Kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish orqali aniqlanadi.	Baholash orqali aniqlanadi	Test olish orqali aniqlanadi	Uyga vazifa berish orqali aniqlanadi	1
14	Maktabgacha yoshdagi (6–7 yashar) bolaning	kommunikativ, ijtimoiy,	kommunikativ, ijtimoiy,	kommunikativ, ijtimoiy,	ijtimoiy, kognitiv, ijodiy,	1

№	test savollari	javob 1	javob 2	javob 3	javob 4	t-j
	qanday umumiy tayanch kompetensiyalari shakllanadi?	shaxsiy, kognitiv	o‘yin, kognitiv	mehnat, o`yin	kommunikativ	
15	Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkillashda qaysi asosiy metod qo‘llanadi?	o‘yin	ijodiy	ko‘rgazmali	o‘qitish	1
16	"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ta’lim-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirishning qanday turlari qo‘llaniladi?	Yillik, haftalik,	yillik, yarim yillik, choraklik	yarim yillik, choraklik, kunlik	choraklik, haftalik, kunlik	1

V. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1026-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtsoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 510-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i.
9. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (2-nashr), T.,2022.
10. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish”. T., 2020.
11. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Groshyeva I.V., Nazarova V.A., Mikailova U.T., Abdunazarova N.F., Zakirov A.A., Isxakova M.R., Umirzakova N.R. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik”. T., 2020.
12. Groshyeva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A. “O‘yin orqali ta’lim olish”.

T., 2020.

13. Groshyeva I.V., Olimov Q.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A. “Kuzatish va baholash” T., 2020.

14. Mirziyoyeva Sh.Sh., Rafashka M., Ten Ye.G., Nazarova V.A., Ismailova M.A. “Har xil yoshdagi muqobil guruhlarda pedagogik yondashuvlar”. T., 2022.

15. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (o‘rta guruh).

16. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh).

17. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (maktabga tayyorlov guruh).

VI.TARQATMA MATERIALLAR

1-TARQATMA

"Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi"	**Yirik motorika;** **Mayda motorika;** **Sensomotorika;**
"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish"	**"Men" konsepsiyasi;** **hissiyotlar va ularni boshqarish;** **ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**
"Nutq, muloqot, ȳqish va yozish malakalari"	**Nutq va til;** **O‘qish malakasi;** **Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi**
"Bilish jarayonining rivojlanishi"	**Intellektual-anglash malakalari;** **Elementar matematik malakalar;** **Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.**
"Ijodiy rivojlanish"	**Badiiy tasavvur etish;** **Badiiy-ijodiy qobiliyatlar**

1-tarqatma

2-TARQATMA

1.1-jadval.

Kichik sohalar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ijodiy rivojlanish
Badiiy ijodiy qobiliyatlar					
Yirik motorika					
“Men” konsepsiyasi					
Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi					
Intellektual va anglash malakalari					
Mayda motorika					
Dunyoni badiiy tasavvur etish					
Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot					
O‘qish malakalari					
Sensomotorika					
Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik					
Nutq va til					
Elementar matematik malakalar					
Hissiyotlar va ularni boshqarish					
Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat					

3-TARQATMA

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari Yosh guruhlari Kichik guruh	O‘rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Sentyabr	O‘zbekiston – mening Vatanim	1-hafta	Men va bolalar bog‘chasi	Men va bolalar bog‘chasi	Mening qadrdon O‘zbekistonim	Mening qadrdon O‘zbekistonim
		2-hafta	Mening shahrim	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam
		3-hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam
		4-hafta	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim
Oktyabr	Kuz bo‘yoqlari	1-hafta	Oltin kuz	Oltin kuz	Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar	Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar
		2-hafta	Sabzavot va mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar
		3-hafta	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor
		4-hafta	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini
Noyabr	Transport, ko‘cha harakati qoidalari (KHQ) Hayot xavfsizligi asoslari (HXA)	1-hafta	Transport bilan tanishuv	Yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti
		2-hafta	Rangli svetofor	Rangli svetofor	Ehtiyotkor piyoda haftasi	Ehtiyotkor piyoda haftasi
		3-hafta	Tez yordam va o‘t o‘chirish yordami	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari
		4-hafta	Bizning yaxshi ishlarimiz	Barcha kasblar muhim	Bizning yaxshi ishlarimiz	Bizning yaxshi ishlarimiz
Dekabr	Qish	1-hafta	Qish	Qish.	Qish Konstitutsiya kuni	Qish Konstitutsiya kuni
		2-hafta	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh
		3-hafta	Kiyim-bosh	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal
		4-hafta	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?

4-TARQATMA

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv:
Bola – bu tanlab olish, faollik, tashabbuskorlik, javobgarlik bilan ajralib turadigan ta’lim jarayonining asosiy belgisi

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv:
Har bir bola o‘zining rivojlanishida individualdir

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv:
Rivojlanish markazida “Bola tashabbuslari ma’qullanadigan va bola ta’lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo‘naltirilishi kerak, ya’ni bolaga hamkorlik

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv:
Kattalar bolalarni o‘zlarining ishlari natijalarini mustaqil ravishda baholashga va xatolarni tuzatishga undaydilar.

5-TARQATMA

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish doirasini (*boshqa guruh tarbiyachisi, mudira, uslubchi, psixolog, mehmonlar, tengdoshlarining ota-onasi*) kengaytirish.

Bolaga o‘z ixtiyori bilan salomlashish, kattalarning savollariga javob berish, minnatdorchilik bildirish, kattalarga murojaat qilishning turli usullaridan foydalanishni o‘rgatish.

Odamlar bilan muloqot qilishda, suhbat va munozaralarda o‘z fikrini ayta olish qobiliyatini shakllantirish. Mustaqil holda “Assalomu-alaykum”, “Marhamat”, “Rahmat”, “Iltimos”, “Xayr”, “Ko‘rishguncha”, “Sog‘ bo‘ling” kabi iltifotli so‘zlarni ayta olishga odatlantirish.

Bolaga atrofdagilarni hurmat qilish muhimligini tushuntirish, oila a’zolari va ularning vazifalarini bilishga ko‘maklashish, oila a’zolariga yordam berishga o‘rgatish, zaruratga qarab yordam so‘rab murojaat etishini rag‘batlantirish.

Tengdoshlari bilan salomlashish, xayrlashish va ular bilan o‘zaro fikrlashish, muloqotdan sevinish, mamnunligini so‘z bilan ifodalash (*“Mening o‘rtog‘im”, “Do‘stimning tug‘ilgan kuni”, “Biz yasagan varraklar”*), bayram va tadbirlarda o‘rtoqlarini tabriklash va bundan quvonch hissini tuyishga o‘rgatish.

Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

Bolani kattalarning nutqini tushunishga, murojaatiga javob berishga o‘rgatish.

Kattalar gapirganda tinglashga, so‘zni o‘z o‘rnida so‘zlashga o‘rgatish. Milliy muomala madaniyatida keng qo‘llaniladigan “Assalomu alaykum”, “Labbay”, “Xo‘p bo‘ladi” “Ko‘rishguncha”, “Yaxshi boring”, “Rahmat”, “Iltimos” kabi iltifotli so‘zlar bilan murojaat qilishga odatlantirish.

Topshiriqni bajarishda sabr-toqatli, qat’iyatli bo‘lish, faoliyatlarda mustaqil harakat qilish, berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan qarashni o‘rgatish.

Shaxsiy kompetentsiyani ("Men" konsepsiyasini yaratish) rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

Bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilishini, sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llashini, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini bilishini, ularni bartaraf etish ustida ishlashini rag‘batlantirish.

Bolada ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishda davom etish. Bolaning o‘z ismi-sharifi, yoshi, manzili, oila a’zolarini to‘liq bilishi, o‘zi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi, o‘zining shaxsiy ahloqiy sifatlarini baholay va anglay olishini rag‘batlantirish.

Milliy an’analarni va madaniy qadriyatlarni hurmatlash, ular bilan faxrlana olishini (*milliy kiyimlar, o‘yinlar, urf-odatlar, tarixni va bugunini bilishga intiladi*) rag‘batlantirish.

Topshiriqni bajarishda sabr-toqatli, qat’iyatli bo‘lish, o‘yinlarni tashkillashtirish, faoliyatlarda mustaqil harakat qilish, o‘ziga nisbatan samimiy va nosamimiy munosabatlarni anglash, jahli chiqqanida o‘zini tuta olish, o‘z xohishini kattalarning talabiga bo‘ysundirish, berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan qarashni o‘rgatish.

O‘zi erishayotgan natijalarni haqqoniy baholash, o‘ziga o‘zi bergan bahosi bilan kattalarning bahosini solishtirish, o‘z kamchiliklarini tuzatishi mumkinligini anglashga o‘rgatish.

Bilish kompetensiyani rivojlantirish uchun bola bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar mazmuni.

Atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanishga o‘rgatish.

Bolani o‘zi yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq, tuman va shahar bilan tanishtirish, ularning nomlarini to‘g‘ri aytishga o‘rgatish.

Bolaning o‘z ismi sharifini, ota-onasining ismi sharifini, yashash manzilini bilishiga erishish.

Bolani mustaqil fikrlashga, dalillar keltirib, bemalol asoslab berishga undash (*suvdan yengil bo‘lgan narsalar suvga cho‘kmasligi, suvdan og‘ir bo‘lgan narsalar cho‘kishini oddiy tajriba asosida amaliy ko‘rsatib tushuntirish*).

Bolaning tabiat hodisalariga qiziqishini orttirish va bilimlarini yanada kengaytirish (*qor, do‘l yog‘ishi, tuman tushishi, momaqaldiroqv.b.*).

Oddiy sabab-oqibat aloqalarini tushunishlariga yordam berish, amaliy tajribalar asosida ko‘rsatish. Issiqda muzning suvga aylanishi va aksincha past harorat

ta’sirida suyuq holatdan qattiq holatga (*suvning muzga*) o‘tishi haqidagi tasavvurini kengaytirish.

Suvning bug‘ga va aksincha, bug‘ni suvga aylanishi hodisalari bilan tanishtirish.

Natijada bolani mustaqil fikrlashga, dalillar keltirib, bemalol asoslab berishga o‘rgatiladi.

Bolada matematik tasavvurlarini rivojlantiriladi. 10gacha to‘g‘ri sanash, teskari sanash, 20gacha to‘g‘ri sanash.

6-TARQATMA

O‘zini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada o‘zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir.

O‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi.

O‘z xohish istaklari, qiziqishlarini bildiradi.

Boshqalarga namuna bo‘lishga harakat qiladi.

Shaxsiy qaror qabul qiladi.

Individuallik tamoyili. Bola shaxsiyatining **individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta’lim tashkilotining asosiy vazifasidir**. Nafaqat bolaning **individual xususiyatlarini hisobga olish (odatlar, temperament, ma’lum bir ovqatlarni yaxshi ko‘rish)** balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo‘shish demakdir.

Subyektivlik tamoyili. Individuallik faqat subyektiv kuchlarga ega bo‘lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. **Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy subyektiga aylanishiga, guruhning tarkibiy qismi, bir bo‘lagiga aylantirish. Bola shu yerda o‘zini namoyon qilishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirishga va boyitishga hissa qo‘shishimiz kerak.**

Tanlash tamoyili. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlanish *markazlari* zarur.

Ertalabki davrada, kechki soatlarda rivojlanish markazlari bolalarning erkin faoliyati uchun xizmat qilishi bolalar markazga o‘z istaklari bo‘yicha borib o‘ynashlari kerak.

Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini rag‘batlantirish maqsadida o‘yin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning o‘yinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yo‘naltirish, o‘z ijodiy faoliyatda tajribaga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tufayli bola o‘z qobiliyatlarini ochib beradi, o‘z shaxsiyatining “kuchli tomonlarini” bilib oladi. Faoliyatning muayyan turida muvaffaqiyatga erishish bola shaxsiyatining ijobiy tomonlarini, “Men” konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Ishonch va qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini “men”ligiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o‘rnatmaslik kerak. Tashqi ta’sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o‘qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Farqli yondashuv tamoyili –tarbiyalanuvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. **Bolaning tabiatiga, uning sog‘lig‘iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir.**

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta’lim jarayonini o‘yin orqali va bolalar bilan ishlashning shakli sifatida, munozaralarni, suhbatlarni, qo‘shma kuzatuvlar va eksperimentlarni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo‘yilgan vazifasi samarali muloqot tamoyillaridan foydalanishdan iborat.

7-TARQATMA

Tadqiqot texnologiyasi (mustaqil izlanib ko‘rish, tajriba orqali xulosa chiqarish. Bunda bolalarga tayyor bilim berilmaydi. Muammolarni izlash, kashfiyot orqali o‘rganish, tajriba o‘tkazishga sharoit yaratiladi).

Masalan biror tajribani mustaqil o‘tkazsin. O‘tkazilgan tajriba orqali xulosa chiqarsin

Mavzu: Suvning tiniqligi

Maqsad: Bolalarni suvning xususiyatlari(tiniqligi) bilan tanishtirish.

Jihoz: suv, sut va 2ta choy qoshiqcha

Tajribaning borishi:

1.Bolalardan idishlardagi suv va sutga qoshiqchalar solishlarini so‘rash.

2. Qaysi idishda qoshiqchalar ko‘rinayotganini so‘rash.

3.Nima sababdan bir stakanda qoshiqcha ko‘rinyapti, ikkinchi stakanda qoshiqcha ko‘rinmayapti? (Chunki, suv tiniq va rangsiz bo‘lganligi uchun suvli stakanda qoshiqcha ko‘rinyapti)

Xulosa: Bolalar suv tiniq, sut esa oq rangda bo‘lganligi uchun suvli stakanda qoshiqcha ko‘rinyapti deb....

Kommunikativ texnologiyasi (Bolaga o‘z fikrini bayon etish, bahslashish, munozara yuritish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o‘rgatiladi).

Masalan: Ur to‘qmoq ertagini o‘qib bo‘lgach savollar beriladi:

Bolalar savollarga o‘z fikrlarini bayon etish bilan javob beradilar.

Savollar:

1. Ovchi cholning tuzog‘iga qanday Laylak tushibdi?

2. Ovchi chol qanday sarguzashtlarni boshidan kechirdi?

3. Bolalar xumchaga aytiladigan sehrli so‘zlarni qanday bilib qolishdi?

4. Ular sodda cholning omonatini ehtiyotlab saqlashibdimi?

5. O‘ylab ko‘r-chi, bolalar yaxshi ish qilishdimi?

6. Seningcha, to‘qmoq bolalarni to‘g‘ri jazoladimi? Nima deb o‘ylaysan, to‘qmoqning jazosi bolalarga saboq bo‘ldimikan?

O‘yin texnologiyasi (o‘yin orqali o‘rganish; bilim, malaka, ko‘nikmaga o‘yin vositasida ega bo‘lish uchun sharoit yaratiladi. Ta’limiy o‘yinlar, voqea band o‘yinlar va hokazo o‘yinlar orqali) tashkil etiladi.

Masalan: “Bolasini top” ta’limiy o‘yin. Bunda bolaga bir nechta hayvonlar va ularning bolalari tasvirlangan kartochkalar yoki mulyaji shakli beriladi. Bola biror hayvon tanlaydi, fikrlab shu hayvonning bolasini topadi, nomini aytadi, so‘ng joylaydi. O‘yin shu tarzda davom etadi. Natijada bolalar uy hayvonlarining bolalarini nomini to‘g‘ri aytishga o‘rganadilar.

Psixologik texnologiya(bolaning irodasi, intilishi, qobiliyatlari, qiziqishlarini tarbiyalash).

Masalan:

3-mashq «Bu kim»

Maqsad: Sezgi, diqqat, idrokni rivojlantirish.

O‘yinning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tiradi. O‘rtaga bir bola chaqiriladi, o‘rtoqlarini yaxshilab kuzatgandan so‘ng orqa o‘girib turadi. Psixolog bolaga, men hozir o‘rtoqlaringdan birini kiyimini belgilarini aytaman, sen menining aytganlarimni yaxshilab eshitib, men kim haqida gapirayotganimni topishing kerak, deydi. Masalan, sochi sariq, shimi qora, oq bantigi bor.

Agar bola uning kim ekanligini topa olmasa, o‘rin almashtiriladi. Uch marta topgan bola g‘olib hisoblanadi.

Faoliyat texnologiyasi (bola bilimlarni ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil o‘rganadi, mustaqil izlanadi, xulosa qilish imkoni beriladi).

Masalan:

Mavzu: Lavlagidan bo‘yoq olish

Maqsad: lavlagidan bo‘yoq olishga o‘rgatish

Kerakli jihozlar: xom va pishgan lavlagi, pichoq, tova, yog‘, qirg‘ich, elak, stakan

Tajribaning borishi: lavlagi tozalanib qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Qirg‘ichdan o‘tkazilgan lavlagini doka orqali siqib olinadi. Hosil bo‘lgan sharbatni stakanga solinadi.

Xulosa: lavlagi sharbatidan qizil bo‘yoq olinishini va rasm chizishda foydalanishini bilib olishadi.

Refleksiya texnologiyasi (fikr yuritish, uni tahlil qilish, o‘zini o‘zi aniqlash vositasi). Bolada o‘z tushunchalari, xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida **xulosalar shakllanishi jarayoni** Masalan:

Mavzu: Sabzidan bo‘yoq olish

Maqsad: sabzavotlardan bo‘yoq olishga o‘rgatish

Kerakli jihozlar: sabzi, pichoq, tova, yog‘, qirg‘ich, likopcha, elak, stakan

Tajribaning borishi: sabzi qirg‘ichdan o‘tkaziladi, tovaga yog‘ qo‘yib, qirg‘ichdan chiqqan sabzini tovaga solib qovuriladi va sekin elakdan o‘tkazib suvi siqiladi. Hosil bo‘lgan sharbat stakanga solinadi.

Xulosa: natijada sariq

Namunaviy tahlil varaqasi

Mavzu: Katta guruhda nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyatini tashkil etish va tahlil qilish.
O‘tkazilish vaqti - 11.05.2023-yil
Guruh yoshi va bola soni: 5-6 yosh, 30 nafar.
O‘tkazish joyi- guruh xonasi**.**
Tarbiyachining I.F.SH: Azizova Dilafruz Jumabekovna

Kuzatuvchi oldiga qo‘ygan maqsad: Bolalarni qayta hikoya qilib berishga o`rgatishda foydalaniladigan usullarning to‘g‘ri tanlanganligini kuzatish.

№	Mezonlar	Tahlil va tavsiyalar
1	**Mavzuning “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturiga mosligi**	**Mavzu** : Alisher Navoiy «Non hidi» rivoyatini qayta hikoya qilish
2	**Mavzuga mos materiallar**	Mavzuga mos kerakli jihozlar mavjud.
3	**AKT jihozlarining mavjudligi**	AKT jihozlaridan samarali foydalanildi.
4	**Guruh xonasidagi gigienik shart -sharoit**	Guruh xonasi toza, ozoda, xavfsiz.
5	**Ta’limiy jarayonga bolalarning jalb qilinishi**	Ta’limiy jarayonga barcha bolalar jalb qilingan
6	**Ta’limiy jarayonda bolalar bilan ishlashga ertak qahramonlari yoki ota-onalar, kattalar taklif etilganligi**	Faoliyat jarayoniga ota-onalar taklif etilmagan.
7	**Pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi**	Tarbiyachi kommunikativ, AKT, refleksiya texnologiyalardan foydalandi.
8	**Bolalar nutqi va o‘zaro munosabati**	Bolalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarini tortinmay berdilar. Mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to‘liq javob berishga, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e’tibor bilan tinglab javob berishga harakat qildilar.

9	**Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi.**	Tarbiyachi bu usuldan hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalandi. Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarni maqtadi: ,,Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo‘ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin".
10	**Qayta hikoyani takrorlash.**	Bunda tarbiyachi bolalarga hikoya jarayonida tarbiyachining to‘liq jumlalarini takrorlashga undadi.
11	**So`z va jumlalarni aytib turish**	Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minladi, bolaning uzoq pauza qilishiga yo‘l qo‘ymadi. Tarbiyachi bu usuldan ko‘proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalandi.
12	**Savollar berish.**	Tarbiyachi bu usuldan mashg‘ulotning kirish qismida foydalanildi. Bu usul bolani hikoyani boshlashga yordam berdi.
	Rag`batlantirish.	Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolani jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so‘z aytish (,,Yasha", ,,Barakalla") bilan rag‘batlantirdi. Qayta hikoya qilib bergandan so‘ng bolani maqtadi.
13	**Qismlar bo`yicha qayta hikoya qilish.**	Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo`qotmasligi uchun bolalarga mazmuni tanish bo`lgan asar tanlangan. Qismlar bo`yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg`ulotni tashkil etish jarayoni

		bolalardan kun davomida so`rash imkonini yaratib berdi.
15	**Rollarga bo`lib qayta hikoya qilish.**	Bu usul nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllan-tirishga yordam beradi. Tarbiyachi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar xarakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinla-shishiga, diqqatining faollashishiga katta ta'sir etadi. Rollarga bo`lib qayta hikoya qilish o`rta guruhdan boshlab qo`llaniladi. Bu usuldan mashg`ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.
19	**O`yin usuli (dramalashtirilgan o`yin).**	Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: Tarbiyachi avval o`zi muallif nomidan gapiradi, so`ngra bola gapiradi. Qayta hikoya qilish mashg`ulotlari har bir yosh guruhining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuzishni inobatga olish kerak.
Xulosa qilganda tarbiyachi bolalarni qayta hikoya qilib berishga o`rgatishda foydalangan hamma usullarini sharoitga qarab qo‘lladi.		

Tarbiyachi : f.i.o

Metodist : f.i.o